

CHET (INGLIZ) TILINI O`RGANISHNING AHAMIYATI VA MAZMUNI

Shavkatova Shohida Shavkat qizi

Navoiy Davlat Pedagogika Instituti 2-bosqich magistranti

Shavkatov Sherzod Shavkatovich

Navoiy Davlat Pedagogika Instituti,

Ingliz tili va adabiyoti fakulteti o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola hozirgi kunda o`sb kelayotgan yosh avlodni chet tillariga o`qitish sifatini ta`minlash, chet tillarida erkin so`zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, chet tillarni o`zlashtirish orqali jahon ta`lim standartlariga javob beradigan yetuk kadrlarni tayyorlash yurtimizda amalga oshirilayotgan ta`lim islohotining maqsadlaridan biridir. Shu bilan birga aytish joizki, har bir o`rganilayotgan tilning o`ziga xos qonun-qoidalari, sir-sinoatlari mavjud. Xalqaro standartlarga javob beruvchi yetuk mutaxassis kadr bo`lish uchun o`rganuvchidan tilning eng nozik qatlamlarini nazardan qoldirmaslik talab etiladi.

Kalit so`zlar: pedagogik texnologiya, chet tili, ijtimoiy tarmoqlar, zamonaviy texnika, til mutaxassisi.

THE SIGNIFICANCE AND CONTENT OF LEARNING A FOREIGN (ENGLISH) LANGUAGE.

Abstract: At present, the quality of education of the younger generation to foreign languages, radical improvement of the system of training specialists in foreign languages, training of qualified specialists meeting international educational standards through mastering foreign languages is carried out in our country. At the same time, each language studied has its own rules, principles and principles. In order to become a highly qualified person who meets international standards, the learner needs to be aware of the most delicate layers of the language.

Keywords: pedagogical technology, foreign language, modern techniques, language specialist.

Dunyoning jadal rivojlanayotgan davlatlari orasida mamlakatimizda ham har yili ilm-fanning bir nechta yo`nalishlari tanlab olinib, ularning samaradorligini oshirishda keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Bu borada Prezident Shavkat Mirziyoyev xorijiy tillarni o`rgatish va o`qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan kelajak uchun mustahkam poydevor bo`ladigan yangi tizimni yo`lga qo`yishni ustuvor mezonlardan biri etib belgiladi: “Biz raqobatdosh davlat qurishni o`z oldimizga

maqsad qilib qo`ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o`quv yurti bitiruvchilari kamida ikkita chet tilini mukammal bilishlari shart. O`zbekistonning ochiqlik siyosati, dunyo bozoriga faol kirib borayotgani, barcha sohalarda xalqaro hamkorlik kengayotgani xorijiy tillarni bilishga ehtiyojni oshirmoqda”[1].

Ingliz tilini dunyoning aksariyat qismlarida so`zlashadigan til sifatida ko`rib, bugungi kunda bu tilni o`rganishga bo`lgan talab va ahamiyatni e`tiborsiz qoldirib bo`lmaydi. Ingliz tili o`rganishga bo`lgan talab va qiziqish shunchalik kuchaydiki, bog`cha yoshidagi bolalardan boshlab katta yoshdagi mutaxassislargacha ingliz tili o`rganishga harakat qilyaptilar. Bu ijobiy holat albatta, chunki, til o`rganish o`sha tilda gaplashuvchi davlatlar madaniyati, tarixi va urf odatlarini o`rganish bilan birga shaxsiy manfaatlar yo`lida ham eshiklar ochilishiga zamin yaratadi. Ingliz tili ko`pchilik (ham ona tili, ham chet el tilida so`zlashuvchilar) tomonidan ma`lum bo`lgan tillardan biri bo`lib, unda taxminan 1.452 milliard kishi so`zlashadi.

Bugungi kundagi rivojlanayotgan dunyo aholisining ko`pchiligi ikki va undan ortiq tilda gaplasha oladi. Albatta, bu tillarning dastlabkisi o`zining ona tilisi bo`lib, ko`pchilik tilshunoslar nafaqat o`rganilayotgan chet tilini, balki ona tilini o`zlashtirish uchun ham alohida sharoit yaratilishi kerak deb hisolaydilar. Ta`kidlab o`tish joizki, xorijiy tillarni o`rganish borasida qilinayotgan islohotlar natijasida, o`sib kelayotgan yangi avlod maktabgacha ta`lim muassasasidan tortib oliy ta`lim muassasasigacha ona tili va chet tilini bir paytning o`zida qiyoslab o`rganadilar. Tilshunoslikda mavjud ilmiy-tadqiqot metodlari orqali o`zaro genetik bog`liq va o`zaro genetik bog`lanmagan til oilalariga tegishli bo`lgan, xalqaro va millatlararo aloqada yuksak darajaga va tajribaga ega bo`lgan tillarni qiyoslash orqali o`rganish bir muncha oson bo`lishi ilmiy isbotlangan haqiqatdir. Hozirgi kunda yurtimizdagi ta`lim sohasini tubdan chet tillariga tadbiq qilish maqsadida yaratilayotgan darsliklar, o`quv dasturlari va qo`llanmalar ham ayni shu maqsadlarning amaldagi isbotidir. Binobarin, o`z tili va madaniyatini puxta bilgan o`quvchigina boshqa tillarga mehr qo`yib o`rgana oladi. Chet tillarini o`zlashtirish shu kabi maxsus tayyorgarliklarni talab qiladi.

Ingliz tilini o`rganish orqali dunyo yoshlarining intellektual salohiyatidan boxabar bo`lish, ular bilan fikr almashish, jarayonni chuqur tahlil qilib o`z yutuq va kamchiliklarimizni ularniki bilan taqqoslash imkoniyatiga ega bo`lamiz. Chet tillarni bilishga intilish, “Til bilgan el biladi” maqoliga ko`ra ish tutish bizning ko`p tilni bilgan Forobiy, bir nechta tillarni qiyosiy o`rganish darajasida keng mushohadali bo`lgan Qoshg`ariy kabi yetuk ajdodlarimizdan merosdir.

Bundan tashqari Abdulla Avloniyning 1913-yil “Oyna” jurnalida chop etilgan, “Ikki emas to`rt til lozim” maqolasida ham dunyo bilan hamnafas bo`lish uchun til o`rganish kerakligi atroflicha izohlangan. Buyuk bobokalonlarimiz o`zlarining ilm-fan sohasidagi yangiliklari, beqiyos asarlarini boshqa xalqlarga ham o`z tilida yetkazib bera olganliklari uchun ularni butun dunyo taniydi, e`tirof etadi. O`rta Osiyo ilm-fani,

madaniyat va ma`rifati e`zozlanadi. Bularning barchasi zamirida qayta va qayta ta`kidlaganimizdek til bilish yotadi [2].

Bugungi kun yoshlariga qo`yilayotgan talab ham aynan ingliz tilini o`rganish ekanligini quyidagicha izohlash mumkin: Butun dunyo mamlakatlari bilan bevosita muloqot qilish, o`z mustaqil fikrini omma oldida ravon va tushunarli holda bayon qilib berish, dunyo hamjamiyatida O`zbekistonning alohida o`rnini ta`minlash va uni mustahkamlashga xizmat qilish uchun ham xalqaro tillarni o`rganish dolzarb masaladir.

Respublikamiz ta`lim tizimini isloh qilishda xorijiy tajribalarga asoslangan xalqaro standartlarga mos keluvchi o`quv dasturlari bilan muvofiqlashtirish oliy pedagogik ta`lim tizimini takomillashtirishga asos bo`ldi. O`zbekiston sharoitida milliy mintalitetimiz, urf-odatlarimizni inobatga olgan holda xorijiy tajribalar asosida ta`lim sifatini tubdan isloh qilish davr talabidir. Bu borada 2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasida mamlakatimizda “...ta`lim va o`qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy qilish asosida oliy ta`lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag`batlantirish, ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy qilishning samarali mexanizmlarini yaratish...”, kadrlar tayyorlashning sifat darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, har bir oliy ta`lim muassasasi jahonning yetakchi ilmiy-ta`lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o`rnatishi va talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish, yoshlar auditoriyasi bilan ish olib borishda interfaol usullardan samarali foydalanish, ularga chet tilidan sifatli ta`lim bera olish, oliy ta`lim darajasini namunali bosqichga olib chiqish va tubdan takomillashtirish asosiy vazifalar sifatida belgilandi[3].

Uning global qabul qilinishini hisobga olgan holda, ona tili bo`lmaganlar muloqot, akademik, biznes va o`yin-kulgida yordam berish uchun ingliz tilini o`rganishlari kerak. Xalqaro darajada intervyular va taqdimotlar ingliz tili orqali ham amalga oshiriladi, shuning uchun u boshlang`ich darajada o`qitiladi. Sport olamida ingliz tili futbol, kurash va yengil atletika kabi yirik sport tadbirlaridagi sharhlar shular jumlasidandir. Ma`lumki, ingliz tili fan, aviatsiya, kompyuterlar, diplomatiya va turizm tili hisoblanib, kelajakda bu tilni mukammal ravishda biladiganlar yuqori maoshli ishga taklif qilinadilar.

Jahon bozorida barcha bitimlar va almashinuvlar ingliz tilida olib boriladi, shuning uchun dunyoning barcha biznes hamjamiyatlari ingliz tilini yaxshi biladigan xodimlarni yollashadi. Ingliz tilini yaxshi biladigan kishi dunyodagi ko`p millatli kompaniyada yaxshi ishlay oladi, chunki u fan va texnologiya tilidir. Ko`pgina ilmiy maqolalar ingliz tilida yozilgan bo`lib, o`tgan asrda ingliz tilida yozilgan ilmiy

maqolalar soni tadqiqotchining ona tilida yozilgan maqolalar sonidan oshib keta boshladi. Masalan, Niderlandiyada bu nisbat 40 ga 1 ni tashkil qiladi. Shu sababli ingliz tilini bilish akademik mutaxassislar uchun juda muhim. Ingliz tilini bilmaganlar zamonaviy davrning kuchli vositasi bo'lgan internetdan foydalana olmaydi. Negaki, undagi kontentning yarmidan ko'pi ingliz tilida yozilgan va eng yirik texnologiya kompaniyalari ingliz tilida so'zlashadigan mamlakatlarda joylashgan. Dunyodagi minglab tillar ichida ingliz tili eng ko'p o'rganilgan va xalqaro tashkilotlar tomonidan keng qabul qilingan tildir. Ingliz tilida juda ko'p turli mamlakatlarda so'zlashilganligi sababli, dunyo bo'ylab ingliz tilida dasturlarni taklif qiladigan minglab maktab va universitetlar mavjud. Agar kishi akademik ingliz tilini yaxshi bilsa, dunyoning istalgan nuqtasida o'qishi mumkin hamda ehtiyojlariga mos maktab va kursni topishi uchun ko'plab imkoniyatlarga ega chiqish ehtimoli oshadi. Ingliz tilini yaxshi bilish dunyoning yuzlab mamlakatlaridagi filmlar, musiqa va adabiyotlardan foydalanish imkonini beradi. Misol tariqasida dunyoning turli burchaklaridan ingliz tiliga ko'plab kitoblar tarjima qilinganini ta'kidlash joiz bo'ladi. Bir nechta tajribalar kishini o'zidan farqli madaniyatdagi qadriyatlar, odatlar va turmush tarzini o'rganishdan ko'ra ko'proq shaxs sifatida o'sishiga yordam beradi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, ingliz tilini bilish har bir soha vakili uchun yangi imkoniyatlar kalitidir. Kishi o'z sohasini yaxshi bilsa bitta eshik, ingliz tilini ham bilsa yana bir eshik ochiladi. Aynan, til bilish butun dunyo bilimlari uchun eshik ochadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021 yilning 6 may kuni chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi.
2. Gulbahor Alimovna Shakirova, Xorijiy tilni o'qitishda innovatsion metodlarni qo'llash, Hayot Davomida Ta'lim Olish: Yangi Paradigmalar Va Kutiladigan Natijalar Fan, Ta'lim Va Amaliyot Integratsiyasi FTAI Respublika Konferensiyasi, 25.06.2022, Issn: 2181-1776
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida/ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda.